

O'ZBEKISTONDA FIZIKA VA TEXNIKA FANLARI BO'YICHA, KREATIV FIKIRLOVCHI YOSHLAR SONINI OSHIRISH OMILLARI.

Erkinova Moxlaroyim Muxtorjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti fizika-matematika fakulteti 3-bosqich talabasi

Tel: +998908507127

erkinovamohlaroyim063@gmail.com

Anotatsiya. *Ushbu maqolada fizika va texnika, xususan ilim-fan uchun kreativ yoshlarni yetishtirishdagi olib borilayotgan ishlar va bu ishlar rivoji uchun xizmat qiluvchi muhim takliflar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Fizika va texnika, ilim-fan, kreativ fikirlovchi yoshlar, fanga qiziqish, grantlar, nomdor stipendialar, kreativ taklif va loyihalar.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены проводимые работы по воспитанию творческой молодежи в области физики и техники, а также приведены важные предложения, способствующие развитию этих работ.*

Ключевые слова. *Физика и техника, наука, творчески мыслящая молодежь, интерес к науке, гранты, именные стипендии, креативные предложения и проекты.*

Annotation. *This article discusses ongoing efforts to nurture creative youth in the fields of physics and technology, along with important proposals aimed at supporting the development of these activities.*

Keywords. *Physics and technology, science, creatively thinking youth, interest in science, grants, named scholarships, creative proposals and projects.*

Bugungi kunda jaxon ilim-fan, texnika taraqqiyotida tobora ildam qadam tashlamoqda. Har kuni ijtimoiy tarmoqlarda, sun'iy intellekt yordamida yaratilayotgan yangiliklarni o'qib, inson shunday mo'jizakor ishlarni ro'yobga chiqarayotganidan ajablanib qolasan kishi. Bunday zamonaviy, yaratilayotgan har bir yangi texnika, mashina, robot va qurilmalar fizika va texnika fanlarini anglolmay turib, amalga oshirib bo'lmashligini anglash qiyin emas albatta. Tobora jadallashib borayotgan bu dunyoda ertaga kelajagimiz bo'lgan yoshlarni ilim-fan ravnaqida o'z xissalarini qo'shishi zarurdir. Prezidentimiz kuni kecha oliy ta'lim va ilm-fan sohasidagi ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdilar. Mamlakatimizda fan va texnika taraqqiyotining tayanchi sifatida, ilim-fan yo'nalishlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi oliygohlar ochilib, qamrov ancha kengaydi. Ta'lim jarayonlari sifat jihatidan yaxshilanmoqda. O'tgan yili bakalavriat yo'nalishlari maqbullashtirilib, 1 ming 200 dan ortiq ta'lim dasturlari xorijiy andozalarga moslashtirildi. Jumladan, bitiruvchilarga malaka talabi to'liq yangilandi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari, atrof-muhit muhandisligi, biotizimlar muhandisligi kabi zamonaviy yo'nalishlar ochildi. Bu yil ham yoshlarimiz uchun fizika va texnika ya'ni ilim-fan sohalari bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Xususan, yana mingdan ortiq ta'lim dasturlari dunyoning nufuzli "TOP-300" universitetlari dasturlari asosida takomillashtiriladi. 45 ta ta'lim dasturlari xalqaro

akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Dual ta'limga yana 50 ming talaba jalb qilinadi. Oliy ta'limda ilmiy salohiyatni 55 foizga chiqarish, xorijda 5 ming nafar pedagog malakasini oshirish rejalashtirilgan. Ilg'or muhandislik maktablarini 25 taga yetkazib, sanoat korxonalarini bilan loyihalar qiymatini 10 barobarga oshirish maqsad qilingani haqida takidlandi.

O'zbekistonda yoshlar o'rtasida fizika va texnika ya'ni ilim-fan rivoji uchun yoshlarga ko'plab sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, 2024-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida, davlatimiz rahbari har bir hududda texnika oliygohi va ilg'or muhandislik maktablarini tashkil qilish vazifasini qo'ygan edi. Hozirgacha Termiz, Andijon va Qarshida texnika universitetlari tashkil bo'ldi.

Shuningdek, 8 ta muhandislik maktabi ochildi. Bundan tashqari Nukus, Buxoro, Farg'ona va Namangan texnika universitetlarini tashkil etish loyihalari taqdimot qilindi. Unga ko'ra, yangi yo'nalishlar ochilib, xorijiy dasturlar tatbiq qilinadi, talabalarning ilmiy-innovatsion jarayonlarda ishtiroki kengaytiriladi, oliygohlarga sanoat hamkorlari birlashtiriladi. Talaba yoshlar o'qish davomida sanoat korxonalarida amaliyot o'tab o'qishdan so'ng ishda qolish imkoniyatlari yaratiladi. Umuman, bu yo'nalishdagi 35 ta muassasani yiriklashtirish hisobiga, 22 ta texnika universiteti tashkil qilinadi. Shu yil oxirigacha yana 17 ta muhandislik maktabi ochiladi.

Xulosa va takliflar. Yoshlarga bu borada bir talay imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Lekin fizika, texnika hamda ilim-fan sohalariga yoshlarni qiziqtirish uchun umumta'lim maktablaridanoq fanning mohiyati, kelesajak yutuqlari, ilim-fansiz iqtisodiyot ravnaq topa olmasligi to'g'risida to'liqroq ma'lumotga ega bo'lishlari zarur. Bundan tashqari O'zbekistonda oliy ta'lim uchun oliygohlarda fizika va texnika fanlari uchun grandlar o'rinlarini oshirish hamda ushbu yo'nalishda o'quvchi talabalar uchun davlat tomonidan nomdor stipendialar sonini oshirish hamda ushbu sohada ta'lim olayotgan yoshlar uchun grand loyihalar tashkil etish va ular ishtirokini ta'minlash. Agar yoshlarga fizika va texnika ya'ni ilim-fan rivoji uchun o'z xissalarini qo'shishida davlat ko'magi keng yaratilsa, o'z-o'zidan yangidan-yangi g'oyalar, ro'yobga chiqmayotgan kreativ taklif va loyihalar O'zbekistonda yoshlar o'rtasida yaratila boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumta'lim maktablarida fizika faniga kirishda pedagogik yondashuv. Erkinova M.M., 2024
2. Fizika o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, Rumbesta E.A., 2018 y.
3. Buyuk fiziklar o'qituvchi sifatida, Ilmiy tadqiqotdan xalq ta'limigacha, Shcherbakov R.N., 2020 yil
4. Tabiiy axborot manbai fizikasi haqida, Sulakshin S.S., 2020 y.

Internet manbalari:

1. <https://president.uz/oz/lists/view/7832> (www.president.uz) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2025 y.